

01/1-01-11-15-son
30.01.2026-yil

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo‘mitasi raisi



B.S. Hamrayev

2026-yil 30-yanvar

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida 2026-yilda bajariladigan ilmiy-tadqiqotlar
DASTURI**

T/r	Ilmiy-tadqiqotlar mavzusi	Ilmiy-tadqiqot doirasida mavjud muammolar, ularning asoslanishi va kutilayotgan natijalar	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar	Ilmiy-tadqiqot ishtirokchisi	Buyurtmachi
1.	Geoma'lumot / sputnik tasvirlari asosida qishloq xo'jaligi statistikasida hosilni baholash uslubiyotini yaratish	Mavjud muammolar: Hududlar kesimida hosilni baholash sekin hamda qimmat.	Aprel	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi boshqarmasi (S.S.Xasanov)
		Asos: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.07.2021 yildagi O‘RQ-702-son				
		Kutilayotgan natijalar: Masofadan zondlash orqali ekinlar holatini hamda hosildorlikni experimental baholash uslubiyoti yaratiladi.				
2.	ISO 3534-3:2013 (E/F) Statistika uslubiyatlar. Lug‘at va shartli belgilar – 3-qism: Tajribalarni rejalashtirish	1. Xalqaro standartdan foydalanish huquqini xarid qilish	May	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D.Zakirov)
		2. Xalqaro standartni o‘zbek tiliga tarjima qilib milliy standartni shakllantirish				
		3. Milliy standartni Texnik qo‘mitadan o‘tkazish va Standartlar institutidan ekspertizasini tashkil etish				
		4. Milliy standartni tasdiqlatishni tashkil etish				
3.	ISO 3534-4:2014 Statistika uslubiyatlar. Lug‘at va shartli belgilar – 4-qism: Tanlanma kuzatuv	1. Xalqaro standartdan foydalanish huquqini xarid qilish	May	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D.Zakirov)
		2. Xalqaro standartni o‘zbek tiliga tarjima qilib milliy standartni shakllantirish				
		3. Milliy standartni Texnik qo‘mitadan o‘tkazish va Standartlar institutidan ekspertizasini tashkil etish				
		4. Milliy standartni tasdiqlatishni tashkil etish				

4.	“Statistik samaradorlik indeksi”da O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar	<p>Mavjud muammolar: O‘zbekiston mazkur xalqaro reytingda 2025-yil natijalari bo‘yicha 81,5 ball to‘plab, dunyoning 217 ta mamlakati ichida 58-o‘rinni egalladi va o‘tgan yilga nisbatan 4 ta pog‘onaga mamalkatimiz o‘rni yaxshilandi. 2024-yil natijariga ko‘ra O‘zbekiston mazkur reytingda 80,3 ball to‘plab 62-o‘rinni egallagan. Mazkur xalqaro reytingda O‘zbekistonning o‘rnini sezilarli yaxshilash imkoniyatlari mavjud.</p> <p>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 18-maydagi PQ-246-son qarori.</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Tadqiqotda so‘ngi yillarda mamlakatning indeksdagi ko‘rsatkichlari tahlili amalga oshiriladi va indeksda past ko‘rsatkichli subindekslar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan mavjud muammolar aniqlanadi. Aniqlangan past ko‘rsatkichli subindekslarni yaxshilash hamda mamlakatning indeksda yuqori o‘rinlarni egallashi bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqiladi.</p>	Iyun	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	<p>Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish ofisi (U.Noipov)</p> <p>Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D.Zakirov)</p>
5.	Startup loyihalarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini baholash uslubiyotini yaratish	<p>Mavjud muammolar: Milliy iqtisodiyotda kreativ iqtisodiyotning o‘rnini belgilash va uning ulushini aniqlashda kreativ startaplar va loyihalarga investitsiyalar hajmining hisobini yurutish uslubiyotlarining yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.</p> <p>Asos: O‘zbekiston Respublikasining “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonunining 30-moddasi.</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Jahon amaliyoti va ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kreativ startaplar va loyihalarga investitsiyalar hajmini baholashning statistik uslubiyoti yaratiladi.</p>	Iyul	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	Investitsiyalar va qurulish statistika boshqarmasi (M.Jomolov)
6.	Eksport va import	Mavjud muammolar: Xalqaro uslubiyot va	Avgust	Sh.Shukurov,	Jalb etilgan	Narxlar statistikasi

	narxlari indeksini hisoblash uslubiyotini takomillashtirish	<p>tamoyillar asosida eksport va import narxlari indeksi shakllantirish tamoyillari qiyosiy o'rganiladi, ular asosida mamlakatimizda eksport va import narxlar indeksi hisoblashning yangi uslubiy qoidalari ishlab chiqiladi.</p> <p>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori.</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Tasdiqlangan uslubiy nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, kuzatuvlarni olib borish tartibi xalqaro zamonoviy uslublariga asoslangan qo'llanma asosida eksport va import narxlar indeksi yangi usullariga o'tiladi.</p>		A.Abdvaluiev	mutahassis	boshqarmasi (M.Abdullaev)
7.	Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatini tanlanma kuzatuv usulida statistik tadqiq etishning uslubiyotini yaratish	<p>Mavjud muammolar: Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish, shuningdek tanlanma kuzatuvdan olingan natijalar bilan bosh to'plam (jami ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning)ga koeffitsiyentlar va qayta ishlash usullari orqali tanlanma ma'lumotlar asosida jami ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning faoliyatiga uslubiy jihatdan baho beriladi.</p> <p>Asos: "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 9 va 14-moddalari.</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini to'liq qamrab olinadi.</p>	Sentyabr	Sh.Shukurov, A.Abdvaluiev	Jalb etilgan ekspert	Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi (X. Jurayev)
8.	Turizm yordamchi hisoblarini shakllantirish uslubiyotini takomillashtirish	<p>Mavjud muammolar: MHT uslubiyoti asosida Turizm yordamchi hisoblarini shakllantirishni takomillashtirish turizm sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatni keng qamrovda statistik tahlil qilishga imkon yaratadi.</p>	Oktabr	Sh.Shukurov, A.Abdvaluiev	Jalb etilgan ekspert	Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi (U. Obidov)


		<p>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4796-son qarorining 43-67-bandlari.</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Turizm yordamchi hisoblari MHT uslubiyoti va boshqa xalqaro tavsiyalar bo‘yicha takomillashtiriladi hamda turizm yordamchi hisoblari ma‘lumotlari keng qamrovda tahlil qilinadi.</p>				
9.	Mikroma‘lumotlardan ilmiy maqsadda foydalanish reglamenti va “secure access” modeli	<p>Mavjud muammolar: O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq, maxfiy statistika ma‘lumotlaridan ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun foydalanishning umumiy qoidalari keltirilgan bo‘lib, foydalanuvchilar uchun ushbu qoidalarni amaliyotda qo‘llashda, ya‘ni maxfiy va individual ma‘lumotlardan ilmiy tadqiqot maqsadlarida foydalanish mexanizmini ochib beruvchi reglament (tartibot) mavjud emas.</p> <p>Asos: O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasi.</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar, shu jumladan ilmiy tadqiqotchilar, izlanuvchilar va talabalar uchun Milliy statistika qo‘mitasi tassarufidagi mavjud ma‘lumotlardan, shuningdek, o‘tkazilgan statistika kuzatuvlari (yalpi va tanlanma) natijasi asosida shakllantirilgan mikroma‘lumotlardan ilmiy maqsadlarda foydalanish tartibotlari shakllanadi va tasdiqlanadi.</p> <p>Ariza-skrining-ruxsat berish, anonimlashtirish, kelishuv shartnomasi yaratiladi.</p>	Noyabr	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	<p>Statistika ma‘lumotlarini muvofiqlashtirish va tarqatish boshqarmasi (O.Rustamov),</p> <p>Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov)</p>
10.	Milliy iqtisodiyotda kreativ iqtisodiyotning ulushini hisoblash (2025-yil	<p>Mavjud muammolar: Milliy iqtisodiyotda kreativ iqtisodiyotning ulushini aniqlash maqsadida kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining, shu jumladan kreativ mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va tashqi savdo aylanmasi hajmining,</p>	Dekabr	Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev	Jalb etilgan ekspert	Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov)

	ko'rsatkichlari asosida)	<p>kreativ industriya subyektlari sonining, kreativ industriya sohalaridagi bandlikning, kreativ startaplar va loyihalarga investitsiyalar hajmining aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.</p> <p>Asos: O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 46-son bayoni topshiriqlari 7-bandi (2025-yil 30-sentabr).</p> <p>Kutilayotgan natijalar: Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil ko'rsatkichlari asosida kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, shu jumladan, kreativ mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va tashqi savdo aylanmasining hajmi, kreativ industriya subyektlari soni, kreativ industriya sohalaridagi bandlik, kreativ startaplar va loyihalarga investitsiyalar hajmi aniqlanadi.</p>				
--	--------------------------	--	--	--	--	--

Izoh: zarur hollarda mahalliy va xalqaro ekspertlar jalb qilish mumkin.

“KELISHILDI”


O'zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosari


Z. Ziyayev
2026-yil "29" yanvar



“KIRITILDI”

Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti direktori


Sh. Shukurov
2026-yil "29" yanvar



